

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.10.2024.P.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**BOLTAYEVA GULRUX MUXAMADSAIDOVNA**

**TALABALARDA TOLERANTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING  
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Buxoro - 2025**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the  
Psychological Sciences**

**Boltayeva Gulrux Muxamadsaidovna**

Talabalarda tolerantlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik  
xususiyatlari.....3

**Болтаева Гулрух Мухамадсаидовна**

Социально-психологические особенности формирования  
толерантности у студентов.....23

**Boltaeva Gulrux Muxamadsaidovna**

Social and psychological features of tolerance formation in students .....45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.10.2024.P.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**BOLTAYEVA GULRUX MUXAMADSAIDOVNA**

**TALABALARDA TOLERANTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING  
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Buxoro - 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/P1072 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va «Ziynet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar</b>	<b>Rustamov Shavkat Shuxratovich</b> psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
<b>Rasmiy opponentlar</b>	<b>G'afurov Azizbek Umarjonovich</b> psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent <b>Nusratova Mexriniso Baxshilloeyvna</b> psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
<b>Yetakchi tashkilot</b>	<b>Ma'mun universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.10.2024.P.72.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «14» oktabr soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-27-57; email: [buxdu.rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu.rektor@buxdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. ~~0733~~ raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+ 998 65) 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «30» sentabr kuni tarqatildi.

(2025-yil «30» sentabr dagi 21 - raqamli reyestr bayonnomasi).



**A.M. Nazarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**F.F. Ganjiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,  
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**A.A. Xuseynova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda bo'layotgan ko'p millatli jamiyatdagi o'zaro munosabatlar, turli e'tiqodlar orasidagi ziddiyatlar shaxsdagi tolerantlik muammosini ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq etish masalasini yuzaga keltirmoqda. PISA (Programme for International Student Assessment) tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalarda OECD<sup>1</sup> davlatlaridagi o'quvchilarning 86% «maktabdagi madaniy va etnik xilma-xillik ularga ijobiy ta'sir ko'rsatadi» deya fikrni bildirmoqda. Yuqoridagi statistik raqamlar yosh avlod orasida bag'rikenglik, turli madaniyat va etnik guruhlar bilan hamkorlik qilish istagi mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu borada, o'z kelajagini barpo etish, muayyan kasb egasi sifatida shakllanish, retrospektiv «Men»ni anglash asosida kelajak maqsadlarini belgilash, hayotiy jarayonlarga tayyorlanayotgan talabalarda tolerantlik sifatlarini shakllantirish dolzarb masalalari ahamiyatli bo'lib qolmoqda.

Jahon ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kasbiy sifatlarining rivojlanishi, o'quv faoliyatining talabalarni shakllanishiga ta'siri, tolerantlikning namoyon bo'lish dinamikasi, talabalardagi tolerantlikni rivojlanishiga ta'sir etuvchi individual psixologik, ijtimoiy fazilatlar differentsiatsiyasi tadqiq etilmoqda. Shunindek, baynalminal xususiyatlarni rivojlantirish xalqaro tashkilotlar diqqat markazida bo'lmoqda. Jumladan, dunyo hamjamiyati uchun 1995-yil 16-noyabrda Parij shahrida YUNESKO Bosh konferensiyasining yigirma sakkizinchi sessiyasida «Declaration of principles on tolerance»<sup>2</sup> («Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi»)ni tasdiqladi. Dunyoning 185 davlati, shu jumladan, O'zbekiston ham «Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi»ni imzolagan. Talabalarda tolerantlikning psixologik xususiyatlari, tolerantlikning shaxs qadriyatlarini tizimidagi o'ziga xos jihatlari, talabalarda shaxslararo munosabatlardagi nizolarni konstruktiv hal etish bilan bog'liq etnik, ijtimoiy tolerantlikni, milliy daxldorlik, etnik identifikatsiya xislatlari orqali shakllantirishga yo'naltirilgan masalalarga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda shaxsning, ayniqsa talabalarning ma'naviy, ruhiy, aqliy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha zaruriy me'yoriy asoslar yaratilmoqda. «Jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish, do'stlik va ko'p millatli yagona oila tuyg'usi muhitini mustahkamlash, talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash»<sup>3</sup> ekanligi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada, mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, talabalarni, ayniqsa, yurt tinchligi posboni bo'lgan yoshlarni milliy g'urur, bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, talabalarda tolerantlikni namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik, etnik xususiyatlarni aniqlash orqali ularni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari ilmiy-amaliy tadqiq etish zarurati yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi 837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida» Qonuni, O'zbekiston Respublikasi

<sup>1</sup> <https://www.oecd.org/en/about/programmes/pisa.html>

<sup>2</sup> ЮНЕСКО Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. – T.: 2002. – B. 12.

<sup>3</sup> 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.

Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2018-yil 27-iyuldagi PF-5466-son «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risida»gi, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonlari, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-sentyabrdagi 736-son «Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarorlari hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy shakllantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamiz olimlaridan Z.A.Abidova, M.M.Bafayev, I.Ergashev, N.Jo'rayev, B.Sh.Karimov, V.M.Karimova, Sh.Qagabayev, A.E.Ro'ziyev, M.D.Sattorova, L.Tursunov, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziyev va boshqalarning tadqiqot ishlarida tolerantlik mavzusi falsafiy, psixologik va sotsiologik jihatdan yoritib berilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari pedagog-psixologlaridan B.G.Ananyev, S.K.Bondireva, G.V.Bizyuleva, O.D.Sharova, L.A.Shaygerova, V.A.Balxanov, V.V.Glebkin, V.A.Vasilyev, L.M.Drobisheva, V.M.Zolotuxina, A.A.Guseynov, G.A.Andreyeva, A.G.Asmolov, M.B.Xomyakov, A.A.Bodalev va boshqalar tomonidan ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarda tolerantlik fazilatini shakllantirish masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan Dj.Grey, A.Makintayr, E.Munye, P.P.Nikolson, G.Allport, M.Uoltser Z.Freyd T.Gobbs, P.Beyl, F.Bekon, I.Kant, G.Olport, E.Fromm va boshqalarning ilmiy ishlarida tolerant shaxs va tolerant bo'lmagan shaxslar xususiyatlari ilmiy tadqiq etilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-202005236-raqamli «Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish» nomli innovatsion loyiha doirasida bajarilgan (2021-2022 yy.).

**Tadqiqot maqsadi** talabalarda tolerantlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash va zarur tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqot vazifalari:**

talabalarda tolerantlikni shakllantirishda nizoli vaziyatlardagi xulq-atvorni ijtimoiy intellekt ta'sirini aniqlashtirish;

talabalarda tolerantlikni shakllantirishda shaxslararo munosabatlar munosabatlari diadasidagi hayotiy psixologik turg'unlikning etnik identifikatsiya asosida namoyon bo'lish darajasini tahlil qilish;

talabalaridagi tolerantlikni shakllantirishda sotsial tolerantlikni rivojlanish dinamikasini o'rganish;

talabalaridagi tolerantlikni shakllantirishning psixologik shart-sharoitlariga doir nazariy-amaliy xulosalar ishlab chiqish va uning amaliy imkoniyatlarini aniqlashtirish.

**Tadqiqotning obykti sifatida** talabalarda tolerantlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish jarayoni tanlangan bo'lib, tadqiqotga Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetidan 150 nafar, Buxoro davlat universitetidan 130 nafar, Samarqand davlat universitetidan 70 nafar, jami, talabalar 350 nafar jalb etildi.

**Tadqiqot predmetini** talabalarda tolerantlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda kuzatish, suhbat, intervyu, anketa, faoliyat samaralarini tahlil qilish usullari, shuningdek, S.Maddining «Hayotiy turg'unlik va ekzistensiya» testi, G.U.Soldatova, O.A.Kravtsova, O.Y.Xuxlyayev, L.A.Shaygerovalarning «Shaxs tolerantligi indeksi» metodikasi, Sh.Shvartsning «Qadriyatlar» testi (shaxs profili, umumiy qadriyatlar), K.Tomasning «Nizoli vaziyatlarga munosabatlarni o'rganish» metodikasi hamda ilmiy rahbarimiz bilan birgalikda ishlab chiqilgan «Talabalarda tolerantlik darajasini aniqlovchi ijtimoiy-psixologik so'rovnoma»sidan (Sh.Sh.Rustamov hamda G.M.Boltayeva) foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchliligi foizli tahlil, Pirson r-korrelyatsiya koeffitsiyenti, Styudentning t-mezonlari orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

talabalarda tolerantlikni shakllantirish uchun turli millat va differensial xarakterga ega shaxslar bilan o'zaro muloqotda bahs-munozara, tortishuvdan qochish, hamkorlikka intilish pozitsiyalarining etnik va ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'lish dinamikasiga ko'ra nizoli vaziyatlardagi xulq-atvorni ijtimoiy intellekt ta'sirida konstruktiv pozitsiyada ifodalanishi muhimligi asoslangan;

talabalaridagi tolerantlikni shakllantirishda «pedagog-talaba», «talaba-talaba», «talaba-guruh» munosabatlari diadasidagi o'zini nazorat qilish, bag'rikenglik, tavakkalchilik xususiyatlari orqali daxldorlik hissini rivojlantirishga erishish mumkinligi tufayli hayotiy psixologik turg'unlikning etnik identifikatsiya asosida namoyon bo'lishi muhimligi isbotlangan;

talabalaridagi tolerantlikni shakllantirishda turli millat vakillarining qarashlariga nisbatan bag'rikenglik faoliyatdagi yutuqlar, mehribonlik sifatleri bilan uyg'unlashganligi sotsial tolerantlikni rivojlanishiga olib kelganligi tufayli normativ va ideal qadriyatlar tizimi bilan bog'liq shaxs ijtimoiy profili dinamik xarakterga ega ekanligi asoslangan;

talabalarda tolerantlikni shakllantirish uchun o'zgalarning turmush tarzi, boshqalarning muloqot madaniyati, e'tiqodiga nisbatan ijobiy munosabatni

rivojlanishi, boshqa odamlarning o'zidan farq qiladigan fikrlari, xatti-harakatlari va turmush tarzini idrok etish qobiliyatining namoyon bo'lishiga erishish muhimligi tufayli etnik va ijtimoiy tolerantlikni shaxs differensial xususiyatlari negizida axloqiy hislarga bog'liq rivojlantirish zarurligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqot davomida talabalardagi tolerantlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlovchi so'rovnoma ishlab chiqilgan;

talabalarining kasbiy faoliyat yo'nalishiga ko'ra, tolerantlikni namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ustuvor ijtimoiy-psixologik xususiyatlar aniqlashtirilgan; talabalarda tolerantlikni shakllantirish modeli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** ilmiy jihatdan asoslangan, ijtimoiy psixologiyasi yo'nalishida amaliyotchi mutaxassislar tomonidan keng qo'llanuvchi metodik vositalar, matematik statistikaning turli darajadagi (birlamchi va yuqori darajalardagi) metodlari kompleks qo'llangani; respondentlar tanlanma to'plamining hajmi psixologik tadqiqotlarda tavsiya etilgan talablar asosida ishlab chiqilgan; ilmiy-nazariy tahlil, natijalar sharhida ishonchli manbalarga asoslanganligi; asosiy holatlar keng ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shaxsda axloqiy rivojlanishning ijtimoiy, individual psixologik va obyektiv omillari, ichki mexanizmlari haqidagi ilmiy tasavvurlarni boyitishi, shuningdek, tadqiqot materiallari harbiy ta'lim tizimi subyektlarining boshqa odamlarga munosabatni belgilovchi tolerantlik to'g'risidagi ilmiy bilimlarni hamda «Ontogenez psixologiyasi», «Etnopsixologiya», «Rivojlanish psixologiyasi», «Ijtimoiy psixologiya», «Kasbiy psixologiya» kabi fanlarni ilmiy ma'lumotlar bilan to'ldirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tolerantlikni namoyon bo'lishi va rivojlanishining psixologik qonuniyatlari haqidagi bilimlardan talabalarining axloqiy tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish hamda tolerantlikning kasbiy faoliyat yo'nalishiga ko'ra, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari izohlangan ma'lumotlardan foydalanish, talabalarda tolerantlikni shakllantirishning amaliy ta'minotini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natijalari ularning amaliy tayyorgarligini oshirishga yordam berishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi.** Talabalarda tolerantlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga oid muammoni tadqiq etish natijasida:

talabalarda tolerantlikni shakllantirish uchun turli millat va differensial xarakterga ega shaxslar bilan o'zaro muloqotda bahs-munozara, tortishuvdan qochish, hamkorlikka intilish pozitsiyalarining etnik va ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'lish dinamikasiga ko'ra, nizoli vaziyatlardagi xulq-atvorni ijtimoiy intellekt ta'sirida konstruktiv pozitsiyada ifodalanishi muhimligi asoslanganligiga doir takliflar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-281-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduli mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-281-sonli

ma'lumotnomasi). Natijada talabalardagi tolerantlikning nizoli vaziyatlarda xulq strategiyalari bilan bog'liqligini tadqiq etish imkoniyati yaratilgan;

talabalardagi tolerantlikni shakllantirishda «pedagog-talaba», «talaba-talaba», «talaba-guruh» munosabatlari diadasidagi o'zini nazorat qilish, bag'rikenglik, tavakkalchilik xususiyatlari orqali daxldorlik hissini rivojlantirishga erishish mumkinligi tufayli hayotiy psixologik turg'unlikning etnik identifikatsiya asosida namoyon bo'lishi muhimligi isbotlanganligiga oid ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-281a-son buyrug'i bilan «Etnopsixologiya» moduli mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-281-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalardagi tolerantlikning namoyon bo'lishiga hayotiy turg'unlikning ta'siri ochib berilgan;

talabalardagi tolerantlikni shakllantirishda turli millat vakillarining qarashlariga nisbatan bag'rikenglik faoliyatdagi yutuqlar, mehribonlik sifatleri bilan uyg'unlashganligi sotsial tolerantlikni rivojlanishiga olib kelganligi tufayli normativ va ideal qadriyatlar tizimi bilan bog'liq shaxs ijtimoiy profili dinamik xarakterga ega ekanligi asoslanganligiga oid ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-281a-son buyrug'i bilan «Etnopsixologiya» moduli mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-281-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalardagi tolerantlik va qadriyatlar tizimining o'zaro bog'liqligini aniqlashtirish imkoniyati yaratilgan;

talabalarda tolerantlikni shakllantirish uchun o'zgalarning turmush tarzi, boshqalarning muloqot madaniyati, e'tiqodiga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlanishi, boshqa odamlarning o'zinikidan farq qiladigan fikrlari, xatti-harakatlari va turmush tarzini idrok etish qobiliyatining namoyon bo'lishiga erishish muhimligi tufayli etnik va ijtimoiy tolerantlikni shaxs differensial xususiyatlari negizida axloqiy hislarga bog'liq rivojlantirish zarurligi isbotlanganligiga oid takliflar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-281a-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduli mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-281-sonli ma'lumotnomasi). Natijada tolerantlikni shakllantirishning modeli va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 3 ta respublika, 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilangan, qo'llanilgan metodlar, tadqiqot obyekti hamda predmeti aniqlashtirilgan, ilmiy ishning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda joriy etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Talabalarda tolerantlikni shakllantirishning psixologik jihatlari**» deb nomlangan birinchi bobida tolerantlik fenomenining ijtimoiy-psixologik talqini, tolerantlikni tadqiq etishning zamonaviy yondashuvlari, talabalarda tolerantlikni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan.

O'zbek olimlaridan Z.A.Abidova, G.R.Akramova, M.M.Bafayev, Z.A.Abidova, A.E.Ruziyev, V.M.Karimova, G.E.Kushanova, M.D.Sattorova, G'.B.Shoumarov kabilarning shaxs tolerantligini shakllantirishdagi asosiy vazifalar, ijtimoiy rol munosabatlarini kengaytirish, jamiyat ijtimoiy hayotidagi xilma-xillikni qabul qilish va turli ijtimoiy guruh vakillari bilan samarali o'zaro munosabatga kirishishda muloqot madaniyatini yuksaltirish borasidagi tadqiqotlarining tahlili keltirilgan.

Xorijlik olimlar V.Rayx, K.Xorni, G.Markuze, A.Mitterlix, N.Braun, A.Ballok, E.Fromm va boshqalarning ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarida tolerantlikning mazmun-mohiyati, tolerantlik va shaxsiy sifatlarning ijtimoiy bog'liqligi kabi muammolar bo'yicha ilmiy tadqiqotlarining nazariy tahlillari keltirilgan.

Tolerantlikni shakllantirish muammosi rus psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan. Jumladan, kasbiy motivlar borasida B.G.Ananyev, A.G.Asmolov, V.S.Solovyov, S.L.Bratchenko, R.R.Valitova, E.G.Vinogradova, A.A.Pogodina, S.K.Bondireva, I.B.Grinshpun, M.S.Maskovskiy, A.P.Sadoxin va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini kiritishimiz mumkin.

Dissertatsiyaning «**Talabalarda tolerantlikni shakllantirishni tadqiq etishning amaliy asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning metodologik asoslari keltirilgan bo'lib, talabalarda tolerantlikni shakllantirishni o'rganishda qo'llangan metodikalarning uslubiy tamoyillari, tadqiqotda tanlab olingan respondentlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida mazkur tadqiqot uchun ishlab chiqilgan psixologik so'rovnoma va uning natijalari haqidagi ma'lumotlar qayd etilgan.

Dastlab, S.Maddining «Hayotiy turg'unlik va ekzistensiya» testi bo'yicha normativ ideallarga doir olingan natijalarning tahlili keltirilgan.

**S.Maddining «Hayotiy turg'unlik va ekzistensiya» testi orqali olingan natijalar tahlili (n=350)**

Shkalalar nomi	O'rtacha (M)		Farqlar
	2-bosqich (n=180)	4-bosqich (n=170)	t
Daxldorlik	9,1	7,3	-2,4*
Nazorat	6,7	8,8	-2,2*
Tavakkalchilik	7,1	9,5	-2,1*

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ ; \*\*  $p \leq 0,01$ .

S.Maddining «Hayotiy turg'unlik va ekzistensiya» testi bo'yicha dastlabki olingan natijalar tahliliga ko'ra, «daxldorlik» ( $t=-2,4$ ;  $p < 0,05$ ), «nazorat» ( $t=-2,2$ ;  $p < 0,05$ ) hamda «tavakkalchilik» ( $t=-2,1$ ;  $p < 0,05$ ) omillari bo'yicha ahamiyatli tafovutlar kuzatildi.

Metodikaning dastlabki «daxldorlik» omili bo'yicha ahamiyatli farq qayd etilgan bo'lib, bu omilda 2-bosqich talabarlari yuqori natijani qo'lga kiritishdi ( $t=-2,4$ ;  $p \leq 0,10$ ). Mazkur olingan natijalar tahliliga ko'ra, 2-bosqich talabalarida ijtimoiy hayotda bo'layotgan voqea va hodisalarga nisbatan e'tiborning kuchliligi, o'z fikrlarini mustaqil tarzda bayon eta olish kabi jihatlarning mavjudligidan dalolat beradi. Bu esa ularda real hayotni anglash, odamlar bilan tezda chiqishib keta olishlarini anglatadi. Shuningdek, 4-bosqich talabalarida qadriyatlarga, muammolarga befarqlik, daxldorlik hissining passivligi kabi xususiyatlar aniqlandi.

Navbatdagi «nazorat» omili bo'yicha 4-bosqich talabarlari yuqori natijani qayd etdi ( $t=-2,2$ ;  $p < 0,05$ ). 4-bosqich talabalarida nazorat subyektini vaziyatga ta'sir qilishga hamda ta'sir qilish usullari va vositalarini izlashga, vaziyatni stressiz holatga aylantirish uchun, chorasizlik holatiga ushib qolmaslik uchun, uning harakatlari, natijalari, munosabatlari hamda voqealar o'rtasida sababiy bog'liqlik borligiga ishonch mavjudligi kuzatildi. Shuningdek, 4-bosqich talabarlari o'z harakatlari bilan ularning hayotlarida sodir bo'layotgan voqealar o'rtasida sababiy bog'liqlik borligiga ishonishadi, shuning uchun ham o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishga intilishadi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha past natijani qayd etgan 2-bosqich talabarlari esa o'z harakatlari bilan ularning hayotlarida sodir bo'layotgan voqealar orasida bog'liqlik bor ekanligiga unchalik ham ishonishmaydi.

Metodikaning so'nggi «tavakkalchilik» omilida ham ahamiyatli farqlar qayd etildi ( $t=-2,1$ ;  $p \leq 0,05$ ). Mazkur omil bo'yicha 4-bosqich talabalarida yuqori natija kuzatildi. Demak, 4-bosqich talabalarida o'zaro foydali hamkorlik o'rnatish qobiliyati, ijtimoiy jarayonlarda tajribaga suyangan holda qarorlarni qabul qilish, guruhiy munosabatlardagi o'z fikrini bayon eta olish qobiliyati ham yaxshi shakllangan ekan.

Mazkur metodika bo'yicha olingan natijalar yuzasidan xulosa qiladigan bo'lsak, hayotiy turg'unlik shaxs faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning atrofidagi dunyo bilan o'zaro munosabatlarga qanday ta'sir qilishi umumiy maqsadlarga muvofiq o'z maqsadlariga erishish omilini inobatga oladi. Bu tarkibiy qismlar har birimizda mavjud bo'lishi lozim, ular bir-biri bilan o'zaro

bog‘lanishi va har doim uyg‘un tarzda rivojlanishi kerak.

**2-jadval.**

**«Tolerantlik indeksi» so‘rovnomasi orqali olingan natijalar tahlili (n=350)**

Shkalalar nomi	O‘rtacha (M)		Farqlar
	2-bosqich (n=180)	4-bosqich (n=170)	t
Etnik tolerantlik	24,1	28,3	-4,1*
Sotsial tolerantlik	22,7	25,8	-3,2*
Tolerantlik shaxs xislati sifatida	23,5	26,7	-3,8*

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ ; \*\*  $p \leq 0,01$ .

«Tolerantlik indeksi» so‘rovnomasi bo‘yicha dastlabki olingan natijalar tahliliga ko‘ra, «etnik tolerantlik» ( $t=-4,1$ ;  $p < 0,05$ ), «sotsial tolerantlik» ( $t=-3,2$ ;  $p < 0,05$ ) hamda «tolerantlik shaxs hislati sifatida» ( $t=-3,8$ ;  $p < 0,05$ ) omillari bo‘yicha ahamiyatli farqlar qayd etildi.

Metodikaning dastlabki «etnik tolerantlik» omili bo‘yicha ahamiyatli tafovutlar kuzatildi ( $t=-4,1$ ;  $p < 0,05$ ). Ushbu omilga ko‘ra, 4-bosqich talabalarida yuqori natija aniqlandi. Mazkur olingan natijalar tahliliga ko‘ra, ularda etnik tolerantlik xususiyati o‘zgalarning turmush tarziga, boshqalarning kiyinish odobiga yoki muloqot madaniyatiga, e‘tiqodiga nisbatan ijobiy munosabatda ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, ularda urf-odatlar, stereotiplar va xulq-atvor xususiyatlarini qabul qilish bo‘yicha turli etnik guruhlarining ongli harakatlariga tayyorlikni shakllantirishga bo‘lgan munosabat yuqori ekanligi dalillandi. Bu esa 4-bosqich talabalarida boshqa millat vakillariga nisbatan ularning e‘tiqodidan qat’iy nazar, mehmondo‘stligini anglatadi.

Navbatdagi «sotsial tolerantlik» omili bo‘yicha ham 4-bosqich talabalarida ijobiy natija qayd etildi ( $t=-3,2$ ;  $p < 0,05$ ). Bu shundan dalolat beradiki, 4-bosqich talabalarida agressivsiz boshqa odamlarning o‘zinikdan farq qiladigan fikrlari, xatti-harakatlari va turmush tarzini idrok etish qobiliyatining hamda o‘zaro ijtimoiy-psixologik jihatdan maqsadlarini amalga oshirishda o‘zaro tushunish, o‘z harakatlari, munosabatlarini boshqa shaxslar jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini boricha qabul qilishning mavjudligi kuzatildi.

Metodikaning so‘nggi «tolerantlik shaxs xislati sifatida» omili bo‘yicha 4-bosqich talabalarida ijobiy natija kuzatildi ( $t=-3,8$ ;  $p < 0,05$ ). Jumladan, 4-bosqich talabalarida boshqalarni tushunish, o‘zgalarning xarakter xususiyatlarini shaxs sifatida qabul qilish yuqoriligi, shuningdek, boshqa shaxslarga nisbatan ichki his-tuyg‘ularini namoyon qilishi, suhbat jarayonida yoki faoliyat jarayonida shaxslarga bir-birlariga bo‘lgan munosabatida bag‘rikeng bo‘lishi boshqa shaxslarga nisbatan xushmuomalada bo‘lishi dalillandi.

Shvartsning «Qadriyatlar yo‘nalishi» metodikasi bo‘yicha dastlabki olingan natijalar tahliliga ko‘ra, «hokimiyat» ( $t=-2,1$ ;  $p < 0,05$ ), «yutuqlar» ( $t=-2,5$ ;  $p < 0,05$ ), «stimulatsiya» ( $t=-2,2$ ;  $p < 0,05$ ), «mustaqillik» ( $t=-2,7$ ;  $p < 0,05$ ), «universallik» ( $t=-2,1$ ;  $p < 0,05$ ), «mehribonlik» ( $t=-2,6$ ;  $p < 0,05$ ), «an’analar» ( $t=-2,5$ ;  $p < 0,05$ ), «konformlilik» ( $t=-2,4$ ;  $p < 0,05$ ) hamda «xavfsizlik» ( $t=-2,9$ ;  $p < 0,05$ ) omillari bo‘yicha ahamiyatli tafovutlar kuzatildi.

**Sh.Shvartsning «Qadriyatlar yo‘nalishi» metodikasi orqali  
olingan natijalar tahlili (n=350)**

Shkalalar nomi	O‘rtacha (M)		Farqlar t
	2-bosqich (n=180)	4-bosqich (n=170)	
Hokimiyat	5,3	7,4	-2,1*
Yutuqlar	4,3	6,5	-2,5*
Gedonizm	5,2	4,7	-1,6
Stimulatsiya	3,4	5,6	-2,2*
Mustaqillik	5,9	7,2	-2,7*
Universallik	8,5	5,7	-2,1*
Mehribonlik	7,5	5,4	-2,6*
An’analar	7,8	6,4	-2,5*
Konformlilik	5,3	7,9	-2,4*
Xavfsizlik	6,7	8,9	-2,9*

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ ; \*\*  $p \leq 0,01$ .

Metodikaning dastlabki «hokimiyat» omili bo‘yicha 4-bosqich talabalarida yuqori natija kuzatildi ( $t=-2,1$ ;  $p < 0,05$ ). Bu shundan dalolat beradiki, 4-bosqich talabalarida ma’lum ijtimoiy mavqega yoki obro‘ga erishish, odamlarga, mulk-vositaga, imkoniyatlarga hokimlik qilish yoki ulardan ustun bo‘lishni ko‘rsatishi, o‘zaro munosabatlarda muvaffaqiyatni faol namoyish etishi, jamiyat tomonidan e’tirof etilishni xohlashi hamda ijtimoiy muhitda boshqalardan ustun bo‘lishga intilish aniqlandi. Buni esa ularning boshqalarni ijtimoiy hurmat qilishga hamda shuhratparastlikka moyilligi bilan izohlanadi.

Navbatdagi «yutuqlar» omili bo‘yicha 4-bosqich talabalarida yuqori natijani ko‘rsatdi ( $t=-2,5$ ;  $p < 0,05$ ). Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra, ularda ijtimoiy me’yorlarga muvofiq holda o‘z qobiliyatini, imkoniyatlarini namoyish etish orqali shaxsiy muvaffaqiyatga erishish, intiluvchan, qiziquvchanlik sifatlarining yuqoriligi dalillandi. Shuningdek, 4-bosqich talabalarida jamiyatda qabul qilingan me’yorlar sharoitida ijtimoiy imkoniyatlarini namoyish etish orqali ularning jamiyat tomonidan ma’qullanishiga erishishga intilishi namoyon bo‘ldi.

Keyingi «stimulatsiya» omili bo‘yicha ishonchli farqlar qayd etilgan bo‘lib, 4-bosqich talabalarida yuqori natija kuzatildi ( $t=-2,2$ ;  $p < 0,05$ ). Jumladan, ularda o‘z faolligining optimal darajasini saqlab qolish uchun turli kechinmalarga va tajribaga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqib oldinga intilish, shuningdek, chuqur tajriba olishga, yangilikka intiluvchanlik hamda yangi tajribalarni o‘zlashtirishga harakat qilishi dalillandi.

«Mustaqillik» omili bo‘yicha 4-bosqich talabalarida yuqori natija qayd etildi ( $t=-2,3$ ;  $p < 0,05$ ). Olingan natijalar tahliliga ko‘ra, 4-bosqich talabalarida fikrlashda va xatti-harakatlarida mustaqillik, ijodkorlik, izlanuvchanlik kabi jihatlar mavjudligi dalillandi. Buni esa ularda o‘zini nazorat qilishga, boshqarishga hamda o‘z xatti-harakatlarida mustaqillikka intiluvchanliklari bilan izohlash mumkin.

Navbatdagi «universallik» omili bo‘yicha 2-bosqich talabalarida yuqori natijani

qayd etdi ( $t=-2,1$ ;  $p<0,05$ ). Bu esa ularda o'zgalarni tushunish, murosaliilik, insoniyatni va tabiatni ezguligi uchun harakat qilib, ularni himoya qilish xususiyatining mavjudligini bildiradi. Shuningdek, universallik ko'rsatkichi bo'yicha yuqori natijalarni qo'lga kiritgan 2-bosqich talabalarida boshqalarni tushunish, o'zga insonlar bilan tez murosaga kirishuvchanlik ham yuqori ekanligini namoyon bo'ldi.

«Mehribonlik» omili bo'yicha 2-bosqich talabalarida yuqori natija qayd etildi ( $t=-2,6$ ;  $p<0,05$ ). Jumladan, 2-bosqich talabalarida boshqalarga xayrixohlik, yaqin insonlarining farovonligini qo'llashi hamda o'zaro ijobiy munosabatning mavjudligi kabi jihatlar aniqlandi. Bu shundan dalolat beradiki, mazkur omil bo'yicha yuqori ko'rsatkichni qayd etgan talabalarda boshqalarga manfaati tegadigan ishlarni amalga oshirishga hamda boshqalar bilan do'stona munosabatlarni amalga oshirishga intilishlari kuzatildi.

Metodikaning keyingi «an'analar» omili bo'yicha 4-bosqich talabalarida ijobiy natija kuzatildi ( $t=-2,5$ ;  $p<0,05$ ). 4-bosqich talabalarida madaniyatda mavjud bo'lgan urf-odatlar va g'oyalarni hurmat qilish, qabul qilish va ularga rioya qilish, an'analar va urf-odatlarni e'tirof etish, taqvodorlik, o'z millatida qabul qilingan me'yorlar asosida yashashga intilish kabi xususiyatlar muhimligi dalillandi.

«Konformlilik» omili bo'yicha 4-bosqich talabalarida yuqori natija aniqlandi ( $t=-2,4$ ;  $p<0,05$ ). Shuningdek, ularda o'zgalarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoki jamiyatning me'yorlariga mos kelmaydigan harakatlardan, moyilliklardan o'zini cheklashga intilish, itoatkorlik, intizomlilik, xushmuomala va odoblilik, otanalarni va kattalarni hurmat qilish kabi jihatlar mavjudligi ayon bo'ldi.

Metodikaning so'nggi «xavfsizlik» omili bo'yicha ham 4-bosqich talabalarida ijobiy natijalar kuzatildi ( $t=-2,9$ ;  $p<0,05$ ). Jumladan, ularda xavfsizlik, uyg'unlik, jamiyat va o'zaro munosabatlarda ehtiyotkorlikning mavjudligi aniqlandi. Sh.Shvarts ikkita alohida - individual va jamoaviy daraja emas, balki xavfsizlik qadriyatlarining bitta umumiy turi mavjud, deb taxmin qiladi. Shuningdek, ularda ijtimoiy tartib, oila xavfsizligi, milliy xavfsizlik, o'zaro yaxshi munosabat, o'zaro yordam, jamoaga tegishlilikini his qilish kuchli ekanligi asoslandi.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida talabalarda milliy qadriyat darajalarini rivojlanganlik holatlarini o'rganish maqsadida «Shaxsning ijtimoiy qadriyatlarini o'rganish» metodikasidan foydalanildi.

**4-jadval.**

**K.N.Tomasning «Nizoli vaziyatlarga munosabatni o'rganish» so'rovnomasi asosida olingan natijalar tahlili (n=350)**

Shkalalar nomi	O'rtacha (M)		Farqlar t
	2-bosqich, n=180	4-bosqich, n=170	
Raqobatlilik	8,4	10,8	-2,3*
Hamkorlik	8,3	10,2	-2,7*
Murosaliilik	7,6	8,5	-1,6
Tortishuvdan qochish	9,8	7,5	-2,1*
Moslashuvchanlik	7,2	9,6	-2,8*

Izoh: \*  $p\leq 0,05$ ; \*\*  $p\leq 0,01$ .

K.N.Tomasning «Nizoli vaziyatlarga munosabatni o‘rganish» so‘rovnomasi bo‘yicha dastlabki olingan natijalar tahliliga ko‘ra, «raqobatlilik» ( $t=-2,3$ ;  $p<0,05$ ), «hamkorlik» ( $t=-2,7$ ;  $p<0,05$ ), «tortishuvdan qochish» ( $t=-2,1$ ;  $p<0,05$ ) hamda «moslashuvchanlik» ( $t=-2,8$ ;  $p<0,05$ ) omillari bo‘yicha ahamiyatli tafovutlar kuzatildi.

Metodikaning dastlabki «raqobatlilik» omili bo‘yicha ahamiyatli tafovutlar mavjudligi bilan birga, 4-bosqich talabalarida ijobiy natija qayd etildi ( $t=-2,3$ ;  $p<0,05$ ). Jumladan, ularda ziddiyatli holatga tushganda nisbatan ko‘pchilik hollarda (boshqa mezonlar bilan qiyoslanganda) uni bartaraf etish yo‘lini raqobatlashish orqali hal qilish mumkin, deb o‘ylashlari aniqlandi. Aniqrog‘i, ular shu yo‘l bilan o‘z muammolariga yechim topishga intilar ekan.

Navbatdagi «hamkorlik» omili bo‘yicha 4-bosqich talabalarida yuqori natijani qayd etdi ( $t=-2,7$ ;  $p<0,05$ ). Demak, olingan natijalar tahlilidan shu ma‘lum bo‘ldiki, 4-bosqich talabalarida shaxslararo munosabatda bir-biriga ko‘maklashish va bir-biriga moslashish (o‘zaro mutanosib tarzda harakat qilish) jihatlari yaqqol namoyon bo‘ldi. Buni esa ularda boshqalar bilan tezda muloqotga kirishimli ekanligi, yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda yaqinlari bilan hamkorlikda ish tutishga intilishlari hamda o‘z maqsadlariga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishda ustoz-murabbiylari, ota-onalari va do‘stlari bilan maslahatlashgan holda ish tutishlari bilan izohlanadi.

Metodikaning keyingi «tortishuvdan qochish» omili bo‘yicha 2-bosqich talabalarida yuqori natija kuzatildi ( $t=-2,1$ ;  $p<0,05$ ). Jumladan, 2-bosqich talabalarida har qanday ziddiyatli holatlarga uchraganda o‘zini chetga olish holatlari qayd etildi. Chunki, ular o‘z «Men»liklarini shaxslararo munosabatda o‘zgarish tomonidan alohida e‘tirof etishini xohlamasliklari ma‘lum bo‘ldi. Aniqrog‘i, shaxslararo munosabatda ularga beriladigan e‘tibor miqdori ozgina kamaysa, ular o‘zlarini noxush his etib, darhol o‘zlarini chetga olish holatlari kuzatildi.

Metodikaning so‘nggi «moslashuvchanlik» omili bo‘yicha 4-bosqich talabalarida ijobiy natija qayd etildi ( $t=-2,8$ ;  $p<0,05$ ). Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra, 4-bosqich talabalarida har qanday o‘zgarishlarni osonlik bilan yengish, yangi sharoitlarga nisbatan moslashuvchanlik, o‘zini yaxshi boshqara olish, kutilmagan ekstremal holatlarda ham o‘z faoliyatlarini davom ettirib keta olish, yangi o‘zgarishlarga tez javob bera olish, tadbirlar, faoliyat rejalari va maqsadlarini har qanday sharoitda tez ishlab chiqa olish hamda vazifalarni bajarishda qiyinchiliklarga nisbatan bardoshlilik xususiyatlari aniqlandi.

## 5-jadval.

### «Tolerantlik indeksi» so‘rovnomasi hamda S.Maddining «Hayotiy turg‘unlik va ekzistensiya» testi omillari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahlili (n=350)

Omillar	Etnik tolerantlik	Sotsial tolerantlik	Tolerantlik shaxs xislati sifatida
Daxldorlik	0,46*	0,19	0,12
Nazorat	0,12	0,42*	0,11
Tavakkalchilik	0,14	0,14	0,48*

Izoh: \*  $p\leq 0,05$ ; \*\*  $p\leq 0,01$ .

«Tolerantlik indeksi» so‘rovnomasi hamda S.Maddining «Hayotiy turg‘unlik va ekzistensiya» testi omillari o‘rtasidagi bog‘lanishlarga ko‘ra, «etnik tolerantlik» omili «daxldorlik» ( $r=0,46$ ;  $p\leq 0,05$ ) omili bilan, «sotsial tolerantlik» omili «nazorat» ( $r=0,42$ ;  $p\leq 0,05$ ) omili bilan hamda «tolerantlik shaxs xislati sifatida» omili «tavakkalchilik» ( $r=0,41$ ;  $p\leq 0,05$ ) omili bilan ahamiyatli korrelyatsiyani qayd etdi.

Metodikalarning dastlabki «etnik tolerantlik» omili «daxldorlik» omili bilan ahamiyatli ijobiy korrelyatsion bog‘lanishlarni hosil qildi ( $r=0,46$ ;  $p\leq 0,05$ ). Bu shundan dalolat beradiki, «etnik tolerantlik» omili yuqori bo‘lgan talabalarda o‘z hayotiga daxldorlik, insonning o‘z hayotiga jalb qilinishi, o‘z faoliyatidan qoniqish olishi ularning boshqalarni tushunish, muhosabalar, barcha odamlarning va tabiatning ezguligi uchun faoliyat ko‘rsatib, ularni himoya qilishga intilishida, fikrlash va xatti-harakatlarini o‘zi tanlashida, shu bilan birga mustaqillik, ijodkorlik, faoliyat, xavfsizlik, uyg‘unlik hamda jamiyat va o‘zaro munosabatlarning barqaror bo‘lishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

«Sotsial tolerantlik» omili «nazorat» omili bilan ijobiy bog‘lanish qayd etdi ( $r=0,42$ ;  $p\leq 0,05$ ). Bundan kelib chiqadiki, talabalaridagi nazorat ko‘rsatkichlarining yuqori bo‘lishi ularda boshqa millat vakillarining turli an’ana, urf-odatlar, diniy xulq-atvorni inobatga olgan holda ular bilan ijobiy munosabatlarga kirisha olish, ularning fikrini qo‘llab quvvatlash, fikrlariga qarshi bormaslik ulardagi nazorat omilining yuqori ekanligidan dalolat beradi. Ya’ni, o‘zga millat vakillarining qadriyatlarini hurmat qilgan holda ular bilan muloqotga kirishish hamda ularni qo‘llab-quvvatlash voqealar natijasiga ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi.

**6-jadval.**

**«Tolerantlik indeksi» so‘rovnomasi hamda Sh.Shvartsning  
«Qadriyatlar yo‘nalishi» metodikasi omillari o‘rtasidagi  
korrelyatsion bog‘lanishlar tahlili (n=350)**

<b>Omillar</b>	<b>Etnik tolerantlik</b>	<b>Sotsial Tolerantlik</b>	<b>Tolerantlik shaxs xislati sifatida</b>
Hokimiyat	0,04	0,13	0,15
Yutuqlar	0,47*	0,17	0,13
Gedonizm	0,08	0,18	0,17
Stimulatsiya	0,07	0,13	0,13
Mustaqillik	0,18	0,38*	0,14
Universallik	0,12	0,15	0,18
Mehribonlik	0,34*	0,17	0,11
An’analar	0,14	0,15	0,43*
Konformlilik	0,15	0,14	0,18
Xavfsizlik	0,11	0,10	0,35*

Izoh: \*  $p\leq 0,05$ ; \*\*  $p\leq 0,01$ .

«Tolerantlik shaxs xislati sifatida» omili «tavakkalchilik» omili bilan ijobiy korrelyatsiya berdi ( $r=0,48$ ;  $p\leq 0,05$ ). Bu shundan dalolat beradiki, talabalarda tolerantlik xususiyatining yaxshi shakllanganligi boshqalarni yaxshi tushuna olishi, boshqa shaxslarning his-tuyg‘ularini inobatga olgan holda ular bilan muloqotga

kirisha olishlari, ulardagi tavakkalchilik omilining oshishi, shaxslararo munosabatlardagi adekvatlik, o'zaro bir-birini tushunish jihatlarining yuqoriligiga sabab bo'lar ekan. Bundan tashqari talabalar faqat tavakkalchilik orqali hayotda ko'proq imkoniyatlarga, ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy mavqega yoki obro'ga erishish mumkin, degan fikrlari mavjudligi aniqlandi.

